# 2019 yil yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasiga kelgan va ketgan shaxslar soni




**1646,8 ming. kishi ***

O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari soni

2018 yil yanvar-mart oylariga nisbatan 1,5 martaga ortgan

**2864,2 ming kishi ***

Chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soni

2018 yil yanvar-mart oylariga nisbatan 0,9 marta kamaygan




* Respublikaga kelgan va ketganlarning umumiy sonida bir kishi bir necha marta hisoblanishi mumkin va bu alohida xolat sifatida hisobga olinadi

## 2019 yil yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasiga kelgan va ketgan shaxslar soni

2018 yil yanvar-mart oylariga nisbatan chet el fuqarolari soni **48,1%**

**1,4%** 2018 yil yanvar-mart oylariga nisbatan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soni




**2019 yil yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari va ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining soni dinamikasi**

O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari soninig tahlilidan ko'rinadiki, 2019 yil yanvar-mart oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 535,2 ming nafar ko'p chet el fuqarolari tashrif buyurgan (tashrif buyurganlar soni 1,5 martaga ortgan).

Ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soni, 2018 yil yanvar-mart oylarida 2904,0 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2019 yil yanvar-mart oylarida 2864,2 ming nafarni tashkil etgan.

## O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari va ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari dinamikasi (ming kishi)




### Ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari

| | yanvar-mart 2019 yil | yanvar-mart 2018 yil |
|---|---|---|
| MDHga | 2726.8 | 2779.4 |
| Uzoq horijiy davlatlarga | 137.4 | 124.6 |

### Kelgan chet el fuqarolari

| | yanvar-mart 2019 yil | yanvar-mart 2018 yil |
|---|---|---|
| MDHdan | 1548.6 | 1063.3 |
| Uzoq horijiy davlatlardan | 98.2 | 48.3 |



2019 yil yanvar-mart oylarida O’zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining 55,8 % (919,4 ming kishi) erkaklar, 44,2 % (727,4 ming kishi) ayollarni tashkil etadi.

Shu bilan birga ketgan O’zbekiston Respublikasi fuqarolarining 60,1 % (1722,5 ming kishi) erkaklar, 39,9 % (1141,8 ming kishi) ayollarni tashkil etadi.

## O’zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari va ketgan O’zbekiston Respublikasi fuqarolari soni jinsi bo’yicha



## 2019 yil yanvar-mart oylarida MDH davlatlaridan O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari soni



O'zbekiston Respublikasiga kelgan MDH fuqarolarining asosiy qismi Qozog'iston Respublikasidan 554,0 ming kishi (33,6 %), Tojikistondan 478,8 ming kishi (29,1 %), Qirg'izistondan 301,6 ming kishi (18,3 %), Rossiyadan 102,0 ming kishi (6,2 %), Turkmanistondan 101,5 ming kishi (6,2 %), Belorussiyadan 3,9 ming kishi (0,2 %) va Ozarbayjondan 3,1 ming kishi (0,2 %).



**2019 yil yanvar-mart oylarida uzoq xorijiy davlatlardan O’zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari soni**

Uzoq xorijiy davlatlardan O’zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining asosiy qismi Turkiyadan 22,4 ming kishi (1,4 %), Xitoydan 11,0 ming kishi (0,7 %), Janubiy Koreyadan 8,0 ming kishi (0,5 %), Xindistondan 5,4 ming kishi (0,3 %), Erondan 2,4 ming kishi (0,1 %), Germaniyadan 2,4 ming kishi (0,1 %), Yaponiyadan 2,1 ming kishi (0,1 %), Italiya, Isroil va Pokistondan mos ravishda 1,4, 1,1 va 1,0 ming kishi tashrif buyurgan.

**2019 yil yanvar-mart oylarida uzoq xorijiy davlatlardan O'zbekistonga kelgan chet el fuqarolari, %**






## 2019 yil yanvar-mart oylarida MDH davlatlariga ketgan O’zbekiston Respublikasi fuqarolarining soni

Chet elga ketgan O’zbekiston Respublikasi fuqarolarining asosiy qismi MDH davlatlaridan Qozog’iston Respublikasiga 44,1 % (1262,9 ming kishi), Qirg’iziston Respublikasiga 25,4 % (728,8 ming kishi), Rossiyaga 13,1 % (375,7 ming kishi), Turkmanistonga 0,9 % (24,5 ming kishi) tashrif buyurgan. Belorussiya va Ozarbayjonga mos ravishda 3,6 va 2,2 ming kishi tashrif buyurgan.





## 2019 yil yanvar-mart oylarida uzoq xorijiy davlatlarga ketgan O’zbekiston Respublikasi fuqarolarining soni

Chet elga ketgan O’zbekiston Respublikasi fuqarolarining asosiy qismi Turkiyaga (44,1 ming kishi), Janubiy Koreyaga (21,3 ming kishi), BAAga (13,4 ming kishi), Saudiya Arabistoniga (10,0 ming kishi), Xitoy, Xindiston va AQSH davlatlariga (mos ravishda 8,0, 6,9 va 4,8 ming kishi) tashrif buyurgan.

Uzoq xorijiy mamlakatlarga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari (ming kishi)



## 2019 yil yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanishi




O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining asosiy safar maqsadlari bu qarindoshlarni yo'qlash (72,2 %). Keyingi o'rinlarda sayyohlik maqsadida - 8,6 %, transit - 8,2 %, davolanish maqsadida - 1,0 %, doimiy yashash maqsadida - 0,8 %, xizmat yuzasidan va ishlash maqsadida - 0,8 % dan, o'qish va tijorat maqsadida - 0,6 % dan va boshqa maqsadlarda – 6,4 %. O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining - 55,8 % erkaklar, - 44,2 % ayollarni tashkil etadi.

### Kelgan chet el fuqarolarining safar maqsadlari




### Chet el fuqarolari jinsi bo'yicha



## 2019 yil yanvar-mart oylarida O’zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining yoshi bo’yicha taqsimlanishi

2019 yil yanvar-mart oylarida O’zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolarining yoshi bo’yicha taqsimlanishidan ko’rish mumkinki, ularning 54,3 % 31-55 yoshlilar, 21,6 % 19 – 30 yoshlilar va 17,4 % 55 yosh va undan kattalar tashkil etadi.

Davolanish maqsadida tashrif buyurgan chet el fuqarolarining 52,7 % 31 - 55 yoshlilar, 20,9 % 19 - 30 yoshlilar, 19,2 % 55 yosh va undan kattalar tashkil etadi. Qarindoshlarni yo’qlash maqsadida tashrif buyurganlarning 52,9 % 31-55 yoshlilar, 19,7 % 19-30 yoshlilar, 19,9 % 55 yosh va undan kattalar tashkil etadi. Sayyohlik maqsadlarida tashrif buyurganlarning 57,0 % 31-55 yoshlilar, 20,8 % 19-30 yoshlilar, 16,6 % 55 yosh va undan kattalar tashkil etadi.



**2019 yil yanvar-mart oylarida chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanishi**

Chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining asosiy safar maqsadi qarindoshlarni borib ko'rish - 54,8 %. Keyingi o'rinda esa ishlash maqsadida – 31,0 %, sayyohlik maqsadida - 3,6 %, doimiy yashash 3,3 %, xizmat yuzasidan – 0,9 %, tranzit – 0,8 %, o'qish maqsadida – 0,6 %, davolanish – 0,3 %, boshqa maqsadlarda 4,7 % ni tashkil etadi.



## 2019 yil yanvar-mart oylarida chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining yoshi bo'yicha taqsimlanishi



2019 yil yanvar-mart oylarida chet elga ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining yoshi bo'yicha taqsimlanishidan ko'rish mumkin, ularning 53,3 % 31 – 55 yoshlilar, 31,2 % 19 – 30 yoshlilar va 11,3 % 56 yosh va undan kattlar tashkil etadi.

Sayyohlik maqsadida xorijda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining 54,8 % - 31 - 55 yoshlilar, 19,9 % - 19 - 30 yoshlilar, 17,6 % 56 yosh va undan kattlar tashkil etadi. O'qish maqsadida ketganlarning 85,9 % - 19 - 30 yoshlilar, 6,9 % - 18 yoshgacha bo'lgan fuqarolar tashkil etadi. Xizmat maqsadlarida tashrif buyurganlarning 70,3 % 31-55 yoshlilar, 19,0 % 19 - 30 yoshlilar tashkil etadi.

